

**BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA ULARDAGI TEMPERAMENTLAR**

*Ilmiy rahbar: Iskandarova Nilufar Toxirovna*

*Turg'onboyeva Durdona Davron qizi*

*SamDCHTI, Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili  
yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada bolalarning psixologiyasi yoritiladi va ulardagi temperamentlar haqida so'z boradi. Zero bu maqola, sizga bolalaringizni yaxshi tushunishingizga yordam beradi va ular bilan ishlashni osonlashtiradi. Hamda bola haqida umumiy tajribaga ega bo'lishingizga ko'maklashadi. Shu tariqa siz bola psixologiyasi qanchalik muhim narsa ekanligini bilib olasiz.

**Kalit so'zlar:** Umumiy psixologiya, psixika, bolalar psixologiyasi, Gippokrat, temperament, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxonlik, optimist, pessimist.

**PSYCHOLOGY OF CHILDREN AND THEIR TEMPERAMENTS**

**Abstract:** This article covers the psychology of children and talks about their temperaments. Because this article will help you better understand children and make it easier to work with them. And they will help you to have a general experience about the child. In this way, you will know how important child psychology.

**Key words:** General psychology, psyche, children psychology, Hippocrates, temperament, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic, optimist, pessimist.

Nima deb o'ylaysiz bolalarning barchasi bir xil fikrlaydimi? Ular bir xil o'yin o'ynab, bir xil uxlab, bir xil ovqatlanishadimi? Yo'q albatta, bolalar har xil bo'lishadi ularning qiziqishlari, dunyoqarashlari har xil bo'ladi.

Bizga ma'lumki bolalar psixologiyasida eng muhim narsa bu ota - ona yoki bolaga ma'sul bo'lgan shaxsga bog'liq. Bu vaziyatda yani bolasining biror narsaga qay darajada qiziqishini, nima ovqat istemol qilishini, nima qilishga qiziqishini, kim bilan o'ynashni xoxlashini yo aksincha nimani hoxlamayotganini bilish uchun ular bolaga e'tiborli bo'lishlari kerak bu borada esa ularning temperamentlarini bilish muhim hisoblanadi.

Bolalar psixologiyasi — psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar [marifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h.k.] paydo bo'lishi va rivojlanishi, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma xil

faoliyatning [o'yinlar, o'qish, mehnat] rivojlanishini bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasida, umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalaniladi, lekin bu tadqiqot usullarini qo'llashda o'ziga xos usullar va farqlar mavjud hisoblanadi. Bolalar psixologiyasida asosan ota onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish, mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi. Bizga ma'lumki bola dunyoni ota ona ko'zlari bilan anglaydi, ota onaga nima yomon bo'lsa bola ham shuni yomon deb hisoblaydi, ota ona kimni xush ko'rsa, bola uchun o'sha inson yaxshi shaxs bo'lib taniladi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu jarayon bolada 10-12 yoshiga qadar davom etadi, undan keyin bola o'zi mustaqil xulosa qilishni o'rganadi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati uning ota onasining ko'zgudagi aksi hisoblanadi. Mana shunga ota ona o'z farzandiga e'tiborli bo'lishi va uni chiroyli tarbiyalab borishi kerak.

Bolaning psixik rivojlanishi qanday bo'ladi, u qanday shakllanadi va unga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat degan muammo juda qadim zamonlardan beri psixalog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda bolalar psixologiyasi fani bolalarning psixologiyasini o'rganadi, fanning asosiy masalasi bola psixik taraqqiyotini o'rganishdan iborat, bu masalani hal qilishda, uni tushuntirib berishda turli xil qarashlarni o'rganish, tahlil qilish muhimdir. Bolalar psixologiyasida ularning psixikasini taraqqiy etishini tushuntirib berishga uringan ilk nazariya "Bola katta yoshli kishining kichik nusxasi" degan fikr bilan tarflanadi. Bu nazariya tarafdorlari bola sifat e'tibori bilan katta yoshli kishidan hech bir farq qilmaydi, bola bo'yi, shuningdek tasavvurlari, xotirasi, diqqati, tafakkuri va boshqa jarayonlaridan anchayin kichkina bo'lgan katta yoshli kishilardir deb ko'rsatishga urinadilar. Lekin bola psixikasining sifat jihatidan o'ziga xosligini tushuntirib bera olmaydilar va taraqqiyotning asosiy sabablarini ham yoritib berolmaydilar. 17 asrdan boshlab falsafiy va psixalogik yo'nalishlarda bolaning taraqqiyoti haqida kurash boradi. Psixalogik yo'nalish tarafdorlari psixik taraqqiyot butunlay muhitga va turmush tajribasiga bog'liq deyidilar. Xosh odam psixikasi va xatti xarakterlarida bor bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni nima bog'laydi tabiiy, tug'ma xususiyatlarmi yoki hayot davomida orttirgan xususiyatlarmi? degan muammo ustida turlicha qarashlar maydonga kelgan. Umuman olganda bolalar psixologiyasini o'rganish va amalda qo'llash har bir yosh bola uchun muhimdir bu nafaqat bola uchun balki butun kelajak insoniyat uchun muhim hisoblanadi.

Bolalar psixologiyasida ularning temperamentlari juda muhim o'rin egallashini ta'kidlab o'tgan edik. Temperament nima? degan savol tug'ilishi mumkin, temperamentni bir qator xususiyatlar bilan aniqlash mumkin:

\_\_\_ Bu tug'ma va oiladan meros bo'lib qolgan.

\_\_\_ Uni o'zgartirish mumkin emas, chunki uning genetik kelib chiqishi bor

\_\_\_ Atrof muhit ta'sirida uni o'zgartirish mumkin emas.

\_\_\_ Bu biologik narsadir, shuning uchun uni qayta o'qitish mumkin emas.

\_\_\_ Bu beixtiyor o'zini namoyon qiladi va uni boshqarish juda qiyin.

Shunday qilib, temperament bu fe'l atvor, xulq atvor va shaxsiyat asos bo'lgan xomashyo. Darhaqiqat, inson shaxsiyatidagi variantlarning 50 foiz genetik omillar bilan belgilanadi deb himoya qiladigan mualliflar mavjud. Turli xil narsalar mavjud temperament turlari biz tug'ilganimizdan beri amalda kuzatilishi mumkin. Temperament bu har bir insonning hissiy tabiati, asosan energiya darajasi, kayfiyat va stimulg nisbatan sezgirlikni o'z ichiga olgan holda tavsiflanadi. Agar siz ko'p vaqtni bolalar bilan o'tqazsangiz yoki farzandli bo'lsangiz, ehtimol temperament nima ekanligini tushunishingiz mumkin. Ba'zi chaqaloqlarni ko'tarish qiyinroq, talabchan yoki juda oson yig'laydilar. Boshqa tomondan, boshqalari yangi vaziyatga duch kelganda yanada xotirjam va moslashuvchan bo'lishadi. Bu bola tug'ilgandan bir necha hafta ichida namoyon bo'ladi va uning temperamentlarini ko'rib borishingiz mumkin. Mashhur yunon shifokori Gippokrat (miloddan avvalgi 460-370) temperament turlarini o'rganish bilan mutlaqo band bo'lgan. Uning temperamentni o'rganishi juda ko'p tadqiq qilingan va psixologiya va psixiatriyada diagnostika vositasi sifatida ishlatilgan. Uning mashxur tasnifi 4 ta temperament turiga bo'lingan bo'lib, unda barcha shaxslar uchun bir xil bo'lgan taktika qo'llanilgan, faqat jiddiy psixopatologiyaga ega bo'lgan odamlardan tashqari. Biroq, har bir inson ushbu 4 turdagi temperamentning bir darajasiga ega deb aytish to'g'riroq hisoblanadi. Ma'lumki temperament turlari 4 guruhga bo'linadi: Xolerik, Sangvinik, Flegmatik, Melonxonlik.

**Xolerik** bu turdagi insonlar juda chaqqon, doimo birinchilikka intiluvchi, o'ta yuqori, ajoyib raqib bo'lishadi. Bu turdagi insonlar do'stga kuchli bo'g'lanadi, ammo do'stlashishi oson bo'lmaydi va o'ta rashkchi insonlar hisoblanadi va ular ko'p va tez tez ovqatlanishadilar, ular kam uxlaydi, kech uyg'onadi.

**Sangvinik** bu turdagi insonlar muvaffaqiyatlari haqida doimo gapirishadi, barchaning e'tiborida bo'lishga intiladi, barchaning ko'nglini olishga harakat qiladilar, doimo omadga ishonuvchi optimist bo'lishadi, simpatiya xislarini doimo oson ochiq va yorqin namoyon eta oladilar, faol, shiddatli va xarakatchan, ko'proq shirinliklarga o'ch bo'lishadi va ularning tushlari rang barang bo'ladi.

**Flegmatik** bosiq, ijodkor, past, etiborda bo'lishni xoxlamaydi, o'ziga ishonch yo'q va o'zidan doimo xavotirda bo'ladi, o'z xislarini yorqin namoyon eta olmaydilar, muvozanatlashgan, ovqatlanish jarayonini qadrlaydi shoshmaydi, tez uxlab qoladi va uni uyg'otish qiyin.

**Melanxonlik** mustaqil fikrga ega bo'lmagan himoyasiz, o'ta past uyatchan guruhda doimo chetda bo'ladi, o'ziga ishonmaydi kamchiliklarini ko'paytiradi, o'zini omadsiz deb hisoblaydi pessimist inson, ammo shu bilan birga u vafodor o'z hislarini

namoyon etishdan hayiqadi, ovqatlanishi ham past va sust, uyqusi yo‘q kam uxlaydi va kechga yaqin o‘zini holsiz his qiladi.

Bola u o‘z nomi bilan yosh bola hisoblanadi, u aslida nima xoxlayotganini ota onasiga yoki tarbiyachisiga tushuntirib bera olmaydi, ular o‘yla, izla top degan qoida bilan yashashadi. Yani siz o‘zingiz uning ichida nima borligini, u nimani xoxlayotganini bilib olishingiz kerak. Buni anglab olish u qadar qiyin ish emas, siz temperament haqida ma’lumot bilsangiz, bolaning qilayotgan harakatlariga qarab ham uning nima qilmoqchi ekanligini bilib olasiz. Agar biz mana shu temperament turlarini yaxshilab tushunib olsak farzandlarimiz uchun aslida nima kerak, ular nimani xoxlayotganini, nega ular o‘yinga qiziqmasligi yoki nega ko‘p uxlashini sabablarini bilib olamiz va shunga qarab ular ustida ishlab, ularning kelajagi uchun muhim bo‘lgan qarorlarni qabul qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘Zme.Birinchi jild.Toshkent, 2000-yil
2. A.V.Retrovskiy va boshqalar. Umumiy psixalogiya. T.:,O ‘qituvchi’.-1992.
3. P.I.Ivanov.Umumiy psixalogiya.-Toshkent. -2007.
4. e-library.namdu.uz
5. cyberleninka.ru